## 8-TOPSHIRIQ: MOBIL QURILMALARNI STANDART SOZLASH UCHUN QAYTA TIKLASH (HARD RESET)

**Mustaqil ish uchun amaliy topshiriq: Mobil qurilmalarni standart sozlamalarga qaytarish (hard reset)**

**Maqsad: K**asbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari uchun "Mobil qurilmalarning dasturiy ta’minoti" fanidan o‘quvchilarda mobil qurilmalarning tizim xotirasini tozalash, grafik kalit yoki parollarni unutganda qurilmaga kirishni qayta tiklash hamda tizimdagi jiddiy qotishlarni (lag) bartaraf etish uchun **Factory Reset** va **Hard Reset** amallarini bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:**

– **Mobil qurilmalar:** Android (Samsung, Xiaomi va h.k.) va iOS (iPhone) smartfonlari.

– **Quvvatlantiruvchi vosita:** Qurilma quvvati kamida 30-50% bo‘lishi shart.

– **Google yoki Apple ID paroli:** Qayta tiklashdan so‘ng qurilmani faollashtirish (FRP bypass muammosi bo‘lmasligi) uchun.

**Ishlash ketma-ketligi bo‘yicha yo‘riqnoma**

**1-bosqich: Dasturiy qayta tiklash (Soft Factory Reset)**

- Smartfon yoqiq holatida: Sozlamalar (Settings) -> Umumiy sozlamalar -> Tiklash (Reset) -> Zavod sozlamalariga qaytarish (Factory Data Reset) ketma-ketligini bajaring.
- **Eslatma:** Bu usul barcha ma'lumotlarni o'chirib yuborishini o'quvchi bilishi kerak.

**2-bosqich: Apparat tugmalari orqali tiklash (Hard Reset)**

- Qurilmani to‘liq o‘chiring.
- Maxsus tugmalar kombinatsiyasini bosing (masalan, Samsungda: Ovoz balandlatish + Yon tugma).
- **Recovery Mode** (Tiklash rejimi) menyusi ochilgach, ovoz tugmalari yordamida Wipe data / factory reset bandini tanlang va tasdiqlang.

**3-bosqich: Kesh xotirani tozalash (Wipe Cache Partition)**

- To‘liq o‘chirmasdan, faqat tizim xatolarini tuzatish uchun Wipe cache partition amalini bajarishni o'rganing (bu ma'lumotlarni o'chirmaydi).

**4-bosqich: Qurilmani qayta ishga tushirish**

- Reboot system now buyrug‘ini bosing va qurilmaning ilk sozlash oynasi (til tanlash, Wi-Fi ulanish) chiqishini kuting.

**5-bosqich: Xulosa va taqdim etish**

O'quvchi bajarilgan amallardan so'ng qurilma qanchalik tez ishlay boshlagani, xotira qanchaga bo'shaganini tahlil qiladi. Shuningdek, Google Account (FRP) blokirovkasiga tushib qolmaslik uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida shaxsiy xulosasini yozadi.

**Baholash mezonlari**

| **Mezonlar** | **Past (0-10 ball)** | **O'rta (11-20 ball)** | **Yuqori (21-40 ball)** | **Maksimal** |
|---|---|---|---|---|
| **Tayyorgarlik** | Google/iCloud | Hisobdan | Hisobdan | **40 ball** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **va Xavfsizlik** | hisoblaridan chiqilmagan, ma'lumotlar zaxiralanmagan. | chiqilgan, lekin qurilma quvvati yetarli emasligi hisobga olinmagan. | chiqilgan, ma'lumotlar zaxiralangan va quvvat darajasi nazorat qilingan. | |
| **Amaliy ijro (Recovery Mode)** | Tugmalar kombinatsiyasini topa olmagan, menyuga kira olmagan. | Menyuga kirgan, lekin Wipe data va Wipe cache farqini tushuntira olmagan. | Recovery menyusiga erkin kirgan va barcha tozalash amallarini xatosiz bajargan. | **30 ball** |
| **Qurilmani faollashtirish** | Qayta tiklangandan so'ng qurilmani sozlay olmagan (FRP blokda qolgan). | Qurilmani sozlagan, lekin ba'zi tizim parametrlarini o'tkazib yuborgan. | Qurilmani zavod holatidan to'liq foydalanishga tayyor holatga keltirgan. | **20 ball** |
| **Hisobot sifati** | Jarayon skrinshotlari yo'q, xulosa berilmagan. | Skrinshotlar bor, lekin qaysi menyu nima vazifa bajarishi yozilmagan. | Har bir bosqich (Wipe data, Reboot) vizual isbotlangan va tahliliy xulosa yozilgan. | **10 ball** |